

Hamkorlar

Kafedra o'zining butun faoliyatini respublikamizning qator oliy o'quv yurtlaridagi soxaga yaqin kafedralar, davlat idoralari, yirik ilmiy loyixalash tashkilotlari bilan doimiy xamkorlikda olib bormoqda, negaki u chiqaruvchi kafedra sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va ekologik barqarorligini ta'minlovchi "Yer kadastro va yerdan foydalanish" yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar, shuningdek, "Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish" mutaxassisligi bo'yicha magistrler tayyorlamoqda. Xususan, o'tgan, 2022/2023 o'quv yilida kafedrada 101 nafar "Yer kadastro va yerdan foydalanish" yo'nalishida bakalavrilar va 19 nafar "Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish" mutaxassisligidan magistrler tayyorlandi.

Yuqorida qayd qilingan kadrlarni tayyorlashda biz bilan ushbu kadrlar buyurtmachilar, xususan, "Kadastr agentligi" va uning viloyatlardagi boshqarmalari, "O'zdaverloyixa" respublika ilmiy loyixalash instituti xamda uning viloyatlardagi filiallari, "Markaziy aerogeodeziya" korxonasi doimiy xamkorlik qilib kelishmoqda. Kafedrani bitirgan barcha talabalar o'zlarining mehnat faoliyatini aynan ushbu korxonalarda yuritishadi. "Yer kadastro va yerdan foydalanish" ta'lim yo'nalishining 3 va 4 kurs talabalari o'zlarining ishlab chiqarish va bitiruv ishioldi amaliyotlarini aynan ushbu korxonalarda o'tishadi. Bulardan tashqari, ushbu kurslarning qator talabalari ishlab chiqarishni o'rganish istagida darslardan keyin ushbu korxonalarga borib ish o'rganmoqdalar. Bundan tashqari, kafedraning professor-o'qituvchilari o'zlarining amaliy malakalarini oshirib borishlari uchun 1 yoki 2 xafthalik stajirovkalar sifatida ushbu korxonalarga doimiy tashrif buyurib turishadi, ishlab chiqarishda bajarilayotgan ishlar bilan doimiy tanishib borishadi. Buning uchun kafedra bilan "Kadastr agentligi" va "O'zdaverloyixa" ilmiy loyixalash instituti, "Markaziy aerogeodeziya" korxonalari 5 yillik o'zaro xamkorlik shartnomalarini tuzishgan. Kafedrani xorijiy mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan ham xamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Xususan, kafedra Moskva davlat yer tuzish universiteti bilan xamkorligi yo'lga qo'yilgan. O'z vaqtida kafedra professorlari A.Chertovitskiy, S.Avezboyev va dotsenti A.Babajonovlar ushbu universitetda aspirantura va doktoranturasida ta'lim olishgan va ushbu universitetda o'z ximoyalarini amalga oshirishgan. Kafedrani Qarshi iqtisodiyot muxandislik institutining soxa bo'yicha kafedrasini bilan, Samarcand davlat arxitektura va qurilish universiteti soxaga oid kafedrasini bilan xam xamkorlik aloqalari mavjud.

Kafedrani xamkorlik aloqalari

T.r. Hamkor tashkilotlar

1. Moskva davlat yer tuzish universiteti
- 1 Obuda universiteti (Vengriya)
- 3 Avstriyaning Zalsburg Universiteti (Avstriya)
- 4 "Uzdaverloyixa" DILI
- 5 "Markaziy aerogeodeziya" korxonasi
- 6 "Tuproq tarkibi va repozitoriyasi, sifati tahlil markazi"

Hamkorlik mohiyati

- | | |
|--|--|
| Professor o'qituvchilar stajirovkasi, malaka oshirish, ilmiy kadrlar tayyorlash | Tayanch doktorantura, stajirovka, malaka oshirish |
| | Magistratura, magistrantlar stajirovkasi, malaka oshirish |
| Ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv ishi oldi amaliyoti, birgalikda ITI bajarish | Ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv ishi oldi amaliyoti, birgalikda ITI bajarish |
| | Ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv ishi oldi amaliyoti, birgalikda ITI bajarish |